

## ÓZBEK TILINING FRAZEOLOGIYASI

Yusupova Durdona Hokimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich 201-guruh talabasi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ibrat va uning omonim, sinonim, antonim haqida ma'lumotlar keltirilgan*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о словосочетании и его синониме, антониме, парониме.*

**Abstract:** *This article provides information about the phrase and its synonym, antonym, paronym, homonym.*

**Kalit soʻzlar:** *Leksema, frazeologiya, omonim, sinonim, paronim, antonim.*

**Ключевые слова:** *Лексема фразеология, омоним, синоним, пароним, антоним.*

**Key words:** *Lexema, phraseology, homonym, synonym, paronym, antonym.*

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazeologizm qadimgi grek soʻzidan olingan bo'lib, frasis- ibora, logos- tushuncha, ta'limot demakdir. Frazema ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyadir. Masalan, zóraymoq ( leksema ) - avj olmoq ( frazema ) qiynalmoq ( leksema ) - azob chekmoqda ( frazema ) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo ózining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi. Frazemaning ifoda plani deganda uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruksiyasi nazarda tutiladi. Masalan: ko'nglini olmoq ( birikmaga teng ), kózlari qinidan chiqib ketdi ( gapga teng ), boshi qotdi ( gapga teng ), ensasi qotdi ( gapga teng ), kabi. Frazemalar orasida qo'shma gapga teng qurilishli turg'un konstruksiyalar uchraydi: " qor yog'ib, izlar bosildi ". Frazemaning mazmun plani uning nimanidir nomlashi, ifodalashi, anglatishidir. Masalan, og'zi- qulog'ida frazemasining mazmun planida " xursand " ma'nosi ifodalangan. Frazemaning mazmun plani albatta kóchma ma'noga asoslanadi, aks holda uning to'g'ri ma'noli turg'un birikmalardan ( elektron hisoblash mashinasi, kvadrat uyalab ekish kabi sostavli terminlardan ) farqi qolmaydi.

Frazeologiyaning mazmun planidagi ma'no frazeologik ma'no hisoblanadi. Qiyos qiling; leksemaning mazmun planida - " leksik ma'no " ; frazemaning

mazmun planida " frazeologik ma'no ". Frazeologik ma'no leksik ma'nodan murakkabroqdir, chunki u frazema tarkibidagi sózlar bog'lanishidan kelib chiqadi va umumlashgan bo'ladi.

Frazeologizmlar - odatda ma'nosi bir so'zga teng keladigan sóz birikmalariga ibora yoki frazeologizmlar deyiladi. Ular bir so'roqqa javob bo'ladi va bir gap bo'lagi bo'lib keladi.

U aravani quruq olib qochadi.

Tahlil: aravani quruq olib qochadi - ibora, nima qiladilar? sóro'giga javob bo'ladi. Gapda kesim vazifasida keladi. Masalan 1) Nega Nuri erkaklar ishiga burnini tiqadi ( kesim ).2) Hamma ishlaridan kóngli to'q bo'lganidan ( sabab holi ) ikki kun ko'z ochib yumguncha ( hol ) ótib ketadi.

Iboralar tilning eng muhim tasviriy uslubiy vositalaridan biridir. Ular nutq uslublarida turli xil vazifalarni bajaradi. Xususan, ilmiy va rasmiy uslublarda ko'pincha muayyan tushunchalarni nomlash uchun qo'llanadi. Masalan qo'l qóymoq, xulosaga kelmoq, qarshi chiqmoq, ovoz bermoq, qól kótarmoq kabi iboralar bunga misol bo'la oladi. Iboralarni aksariyati obrazli tafakkur mahsuli bo'lib, kuchli kóchma ma'no ifodasi bo'lib, yorqin emotsional-ekspressivligi bilan tilda yashaydi. Masalan: tomdan tarasha tushgandan, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, oyog'ini qo'lga olmoq, ópkasini qóltiqlamoq, chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq, qosh qóyaman deb, kóz chiqarmoq kabi. Badiiy va publitsistik, shuningdek sózlashuv uslublarida iboralar xilma- xil tasviriy- uslubiy vazifalarni bajaradi, bunga iboralardagi mavjud rang- barang uslubiy bo'yoq imkoniyat yaratadi. Iboralar - omonimlik, sinonimlik, antonimlik, paronimlik xususiyatiga ega. Iboralarning omonimligi (frazeologik omonimlar )bu, aytilishi va yozilishi bir, ammo ma'nosi har xil bo'lgan omonimlarga aytiladi. Masalan: bosh kótarmoq- 1) hurmat qilmoq, 2) tópalon qilmoq, 3) biror narsaga rozi bólmoq, 4) saylamoq.

Iboralarning sinonimligi ( frazeologik sinonimlar ) - shakli har xil, ma'nosi bir biriga yaqin bo'lgan ibora ( frazeologik sinonim) lar munosabati: toqati toq bólmoq- sabr kosasi tólmoq; yaxshi kórmq- kóngil bermoq; terisiga sig'madi - boshi osmonga yetdi.

Lug'aviy birlik sifatida ibora sóz bilan sinonimlik tashkil qila oladi: g'azablanmoq - joni chiqmoq, sevmoq- yuragidan urmoq, maqtamoq- kóklarga kótarmoq. Bu ibora va sóz ( leksik - frazeologik ) ma'nodoshligi deyiladi.

Iboralarning antonimligi ( frazeologik antonimlar )- bu, bir biriga zid ma'noli bo'lgan iboralarga aytiladi.

Masalan: og'zi qulog'ida- qovog'idan qor yog'adi, ko'kka- ko'tarmoq- yerga urmoq.

Iboralarning paronimligi ( frazeologik paronimlar )- bu, bir tovush bilan farqlanuvchi iboralar. Masalan joni kirmoq - jon kirmoq, yuragi tars yorila yozdi- yuragi qoq yorila yozdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, frazeologizmlar juda katta ahamiyatga ega. Ularni o'rganish va tahlil qilish soha vakillari uchun hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili: oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ H. Jamolxonov.-To.<<Talqin>>,2005
- 2.D.Sotiboldiyeva „Leksikologiya“ o'quv qo'llanma.
3. M.Arabboyeva.,Ona tili darslari milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida “ maqolasi/ Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi, 2023 Nō 7, 718-725.
- 4.To'lanova, M., & Sotvoldiyev, D. (2023). “BOBURNOMA”DA O‘SIMLIK VA HAYVONOT OLAMI TASVIRI. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(31)
5. To'lanova, M. (2024). “O‘ZBEK VA RUS TILLARIDAGI MAQOLLARNING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI”. Interpretation and Researches, 1(23)